

O‘ZBEK VA JAHON ADABIYOTIDA RUHIYAT TASVIRINING QIYOSIY JIHATLARI

Niyozova Nodira Erali qizi

Tel:+998935130510

E-mail: nodiraniyozova961@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.22980603>

Annotatsiya: Ushbu maqolada badiiy adabiyotda inson ruhiyatining tasvirlanishi va uni ifodalashning lingvopoetik, kognitiv hamda pragmatik usullari qiyosiy-profilik jihatdan tadqiq qilinadi. Tadqiqotda o‘zbek adabiyoti vakillari (Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, Mirtemir) hamda jahon adabiyotining ko‘zga ko‘ringan namoyandalari (U. Shekspir, F. Dostoyevskiy, E. Xemingvay) asarlaridagi psixologik tasvir va badiiy portret vositalari qiyoslanadi. Ayniqsa, Mirtemir she‘riyatidagi lirik portretlar, harakatlar va milliylik detallari orqali insondagi ruhiy holatlarni ochib berish mahorati "Bobo" hamda "Yig‘i" she‘rlari misolida batafsil tahlil qilingan. Qiyosiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ruhiyat tasviri universal hodisa bo‘lsa-da, u o‘zbek adabiyotida milliy-emotsional obrazlilik, ingliz adabiyotida dramatik konflikt, rus adabiyotida chuqur psixologizm, Amerika adabiyotida esa bilvosita sukut/detal vositasida namoyon bo‘ladi. Maqola xulosalari badiiy matnning kognitiv va lingvokulturoloqik tabiatini anglashda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: ruhiyat tasviri, badiiy portret, qiyosiy tahlil, milliy konsept, lirik portret, psixologizm, kognitiv tilshunoslik, lingvopoetika.
DOCX

Abstract: This article presents a comparative analysis of the depiction of human psychology in literature, exploring its linguopoetic, cognitive, and pragmatic dimensions. The study compares psychological representation and artistic portraiture in the works of Uzbek authors (Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, Mirtemir) with key figures of world literature, including W. Shakespeare, F. Dostoevsky, and E. Hemingway. Particular attention is paid to Mirtemir's poetry, specifically his poems "Grandfather" ("Bobo") and "Lament" ("Yig'i"), analyzing how inner psychological states are revealed through dynamic lyrical portraits, physical actions, and national details. The comparative findings indicate that while psychological depiction is a universal phenomenon, its expression varies across traditions: Uzbek literature leans toward national-emotional imagery, English literature toward philosophical conflict, Russian literature toward deep introspection, and American literature toward understated detail and subtext. The study contributes to understanding the cognitive and linguoculturological aspects of literary texts.

Keywords: psychological depiction, artistic portrait, comparative analysis, national concept, lyrical portrait, psychologism, cognitive linguistics, linguopoetics.
DOCX

Badiiy adabiyotda inson ruhiyatini tasvirlash barcha milliy adabiyotlarga xos universal hodisa bo‘lsa-da, uni ifodalash vositalari, obrazlar tizimi va lingvopoetik usullari milliy madaniyat, tarixiy tafakkur hamda til imkoniyatlariga ko‘ra farqlanadi. Shu jihatdan o‘zbek va jahon adabiyotida ruhiyat tasvirining qiyosiy tahlili muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek adabiyotida ruhiyat ifodasi ko‘proq milliy-madaniy konseptlar orqali beriladi. Jumladan, “ko‘ngil”, “dil”, “qalb”, “yurak” kabi birliklar inson ichki dunyosining markaziy ramzlari sifatida faol qo‘llanadi. Alisher Navoiy g‘azallarida oshiqning ruhiy iztiroblari “ko‘ngil dardi”, “dil g‘ami”, “hijron o‘ti”

kabi timsollar vositasida ifodalangan. Bu yerda ruhiy kechinma ko‘proq ramziy-obrazli xarakterga ega bo‘ladi¹.

Abdulla Qodiriyning asarlarida esa ruhiyat realistik tasvir asosida ochiladi. Xususan, qahramonlarning ichki ikkilanishi, sevgi va iztirobi dialog, ichki monolog hamda psixologik detal vositasida beriladi². Demak, o‘zbek adabiyotida ruhiyat tasviri sharqona dunyoqarash va realistik psixologizm uyg‘unligida namoyon bo‘ladi.

Mirtemir she‘rlarida badiiy portret vositasida obraz mohiyatini ochishga, xarakterini yorqinlashtirishga, personajlar ruhiyatidagi turli xil tovlanishlarni badiiy aks ettirishga intiladi. Shoirning lirik portretlari, o‘z navbatida, uning muayyan obrazga, biron ijobiy yoki salbiy hodisaga munosabatini anglatishda muhim rol o‘ynaydi. Bu ijod portret tasvirining hayotiy chizgilarga boy bo‘lishi va milliy ranglarda tovlanishi bilan o‘ziga xoslik kasb etadi. Mirtemirning tasvir etilayotgan qahramonga munosabati muhim bo‘lib, aytish mumkinki, bu hol obrazni to‘laqonli idrok etishda asosiy nuqtalardan biri hisoblanadi... Mirtemirning lirik portretlarida uning so‘zdan, so‘zning badiiy imkoniyatlaridan foydalanish mahorati aniq ko‘zga tashlanadi. Shoir “faqat qalam bilan yozmaydi, balki so‘z bilan surat chizadi, surat chizganda ham, rassomga o‘xshab odamlarni beharakat tasvirlamaydi, balki ularni muttasil harakatda”³, turli xil ruhiy holatlarda tasvirlashga intiladi.

Shoir Mirtemir qahramonlarining alohida harakatlari: yig‘isi, kulgisi, turli xil mimik va pantomimik harakatlari vositasida ularning ayni paytdagi ruhiyatini, ma‘naviy dunyosini ochishga harakat qiladi. Obraz yoki personajning tashqi qiyofasi, xatti-harakatlari va ba‘zi a‘zolarining tasviri orqali ularning ichki dunyosiga nazar tashlaydi. Bunda ko‘z, qosh, yuz, kiprik va boshqa a‘zolar tavsifini kuchaytirish orqali satrlardagi ta‘sirchanlikka erishadi.

Mirtemir poetikasining, xususan, portret yaratishda so‘zdan foydalanishdagi o‘ziga xos xususiyatlaridan biri uning obrazni turli xil holat va vaziyatlarda xatti-harakatlar vositasida ifodalashidir. “She‘riyat badanni ham aks ettirishi mumkin, ammo bu harakat vositasida amalga oshirilishi kerak”⁴.

“Bobo” she‘rida Mirtemir ikkinchi jahon urushida halok bo‘lgan o‘g‘lidan ajragan ota obrazini, uning ruhiyatini, chuqur dramatik holatini badiiy aks ettirgan. Mash‘um xabarni eshitgan otaning ko‘zlaridan uyqu qochadi. Shoir otaning ayni paytdagi ruhiy holatini uning xatti-harakatlari, tashqi ko‘rinishlari vositasida ochib beradi:

*Uyqu tugal qochdi chol ko‘zlaridan,
Sarxona singuday tortdi chilimni...*⁵

Ruhiy holatni aks ettirish uchun topilgan noyob badiiy detal – cholning chilimga yopishishi orqali shoir uning qalb yarasiga, motamsaro holatiga ishora qiladi. Chol o‘g‘lidan qolgan yagona yodgori – nabirasini qo‘liga olar ekan:

*Titrrar beixtiyor, tutganday to‘lg‘oq,
Oppoq soqollarga larza tushadi, Nuroni yuzlarda ikki qatra yosh*

Sadaf donalardek yumalab ketar. Rostlar qomatini o‘sha lahza chol, O‘t parcha singari nevarasini, Mag‘rur va mehribon o‘padi takror...

Bu she‘riy parchada har bir so‘z o‘ziga yarasha ruhiy mazmun va mantiqiy asosga ega. Og‘ir judolik o‘z nabirasini qo‘liga olgan cholning qalbini yana bir karra larzaga soladi va “*tulg‘oq tutganday titrab*” ketadi. Bobo o‘z nabirasini ko‘rganda judolik dardini yana bir marta og‘ir his etadi va uning ko‘zlarida yosh qalqiydi. Shu lahzadayoq cholning ruhiyatida keskin o‘zgarish yuz beradi: “*Rostlar qomatini o‘sha lahza chol*”. Cholning ruhiyatida yuz bergan bunday keskin o‘zgarishni ikki sabab bilan izohlash mumkin. Birinchidan, har qanday vaziyatda ham ayol kishining oldida ko‘z yoshi to‘kishi o‘zbekning er kishisi uchun xos fazilat emas. Bu o‘rinda she‘riy parchaning birinchi misrasidagi “*beixtiyor*” so‘zi ichki aloqa bilan uchinchi va to‘rtinchi misralardagi mazmun bilan bog‘lanadi: cholning ko‘zlari beixtiyor yoshlanadi. Ikkinchidan, o‘g‘lidan ajragan bo‘lsa ham o‘zi tirik ekani, nabirasini o‘zi ham

¹ Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy. – Toshkent: Fan, turli nashrlar.

² Abdulla Qodiriy. O‘tkan kunlar. – Toshkent: Sharq, turli nashrlar.

³ Sulton I. Adabiyot nazariyasi. T., «O‘qituvchi”, 1986y., 210-211-betlar.

⁴ Лессинг Г.Э. Лаокоон и в границах живописи и поэзии. М., 1957г., стр.183.

⁵ Mirtemir. Asarlar. 4 jiltlik, 1-jilt. Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1981

tarbiyalashi mumkin ekani, eng asosiysi, ortida zurriyoti qolayotgani otaning qalbini nurlantiradi: “*O’lsam, zurriyotim qolar jahonda...*”. Nabirasini “*mag’rur va mehribon*” o’pishi orqali esa shoir boboning yuqoridagi ikkinchi sababga nisbatan qat’iy ahdini ta’kidlamoqchi bo’ladi. She’r davomida boboning “*nabiram*” emas, “*bolamsan*” deya takror-takror aytishi ham fikrimizni tasdiqlaydi.

She’rda chin o’zbek qariyasining siymosi, ichki va tashqi qiyofasi bilan birgalikda hayotiy detallar vositasida jonli gavdalandirilgan. Xususan, shoir boboning nuroniy chehrasini, beg’ubor qalbini, ko’rkam, nurli siymosini uning “*oppoq soqollari*” orqali tasvirlaydi.

Ruhiyat tasviriga oid chizgilar bevosita berilmagan bo’lsa-da, boboning turli xil xatti-harakatlari, gap-so’zi va ba’zi a’zolarining tasviri orqali uning ruhiyatidagi o’zgarishlarni, qalb tovlanishlarini payqash mumkin. Bunda so’zning ma’no-mohiyatini chuqur tushunishi shoirga qo’l keladi. Boboning qiyofasida, ruhiyatida sof milliy kolorit sezilib turadi. Umuman, Mirtemir she’riyatida, u yaratgan badiiy portretlarda bu tendensiya ustivorlik qiladi.

Shoir Mirtemirning “Yig’i” she’ridagi chuqur lirizm bilan sug’orilgan satrlarda onaning xarakteri, tashqi qiyofasiga xos chizgilar va motamsaro holati bevosita urush va uning oqibatlariga qarshi qo’yiladi. She’rning dastlabki satrlaridayoq musibatli kayfiyat sezilib turadi:

Oh... Dillarni ezib kelar bu yig’i...

Munchalar ingratgan qanday ko’rgulik?

She’r davomida aniq bo’ladiki, bu “ko’rgulik”, bu “yig’i” judolik yig’isi, taqdir ko’rguligi. Har bir harakat, so’z, holat yoki qiyofa ruhiyatni fosh qilib turganidek, onaning ham motamsaro holatdagi kayfiyati, ruhiyatida yuz berayotgan zamzamarlar uning tashqi qiyofasi, so’z va harakatlari vositasida ifodalanadi:

Sochlaring yoyibsan misli oq bulut,

Eningga kiyibsan motam libosi,

O’g’ilning surati qo’llaringda but

Seni ado qilmish farzand savdosi

Musibat qaddingni bukmish misli yoy.

“Oppoq soch”, “motam libosi”, “o’g’ilning surati”, “farzand savdosi” kabi so’z va iboralar onaning ayni paytdagi tashqi qiyofasi va ruhiyatiga xos chizgilar bo’lib, ular ko’lamli g’oyaviy mazmunga ega. “Oppoq soch” iborasi she’r davomida qayta-qayta takrorlanadi va bu bilan shoir judolik dardining naqadar og’ir ekanini ta’kidlash bilan birga, onaning nuroniy siymosiga ham ishora qiladi. Onaning portreti she’r davomida bosqichma bosqich: xatti-harakatlari va holati, ba’zi a’zolarining tasviri, egnidagi libosi va yuz tuzilishiga xos jihatlarni aks ettirish jarayonida namoyon bo’la boradi. She’rda onaning dardli qiyofasi juda yorqin ifodalangan. Misralarda onaning surati hayotiy bo’yoqlarda tiniq chizilgani bois, she’rxon ko’z o’ngida yaqqol gavdalanadi. She’rda onaning butun motamsaro qiyofasi urushga nafrat tuyg’usini uyg’otadi va ona uchun yagona tasalli – nabira obrazi esa urushning favqulotda holatiga, hayotni so’ndirish kabi oqibatlariga qarshi qo’yiladi.

Portret g’oyaga xizmat qilishi kerak ekan, buning uchun har bir so’z va tasviriy ifoda ma’no salmog’iga va g’oyaviy funksiyasiga ega bo’lishi talab etiladi. She’rdagi “oh”, “yig’i”, “ko’rgulik”, “asrdiyda”, “ozor”, “ranj”, “musibat”, “qayg’u”, “mung”, “fig’on” kabi so’zlar ayni vaziyatdagi onaning ruhiyati bilan bog’liq jihatlarni aks ettirish bilan birga, onaning “yoy kabi bukilgan qaddini”, motamsaro tashqi qiyofasini asoslash uchun ham xizmat qilgan.

Jahon adabiyotida esa ruhiyat tasvirining boshqa shakllari kuzatiladi. Masalan, Uilyam Shekspir tragediyalarida inson ruhiyati dramatik konflikt orqali ochiladi. “Hamlet” asarida qahramonning ichki iztirobi falsafiy monologlar vositasida ifodalanadi. “Bo’lish yoki bo’lmaslik” monologi inson ongidagi shubha, ikkilanish va ma’naviy kurashning yorqin namunasidir⁶.

Fyodor Dostoyevskiy ijodida esa ruhiyat tasviri chuqur psixologik tahlil bilan xarakterlanadi. “Jinoyat va jazo” romanida Raskolnikovning ruhiy azobi, vijdon qiynoqlari va ichki bo’linishi keng ichki nutq va tafakkur oqimi orqali beriladi⁷.

⁶ William Shakespeare. Hamlet. – London, turli nashrlar.

⁷ Ф. М. Достоевский. Преступление и наказание - Москва

Ernest Heminguey asarlarida ruhiyat ko‘proq sukut, imo-ishora va tashqi detallar orqali ifodalanadi. Muallifning “muztog‘ nazariyasi”ga ko‘ra, matnda aytilmagan ma’no aytilganidan ko‘ra kuchliroq ta’sir qiladi⁸. Bu holat pragmatik jihatdan o‘quvchini faol interpretatsiyaga undaydi.

Quyidagi jadval qiyosiy jihatlarni ko‘rsatadi:

2.4.1-jadval

№	Adabiyot turi	Asosiy konseptlar	Yetakchi vosita	Ruhiyat xususiyati ifodasi
1.	O‘zbek adabiyoti	Ko‘ngil, dil, qalb	Metafora, ibora, monolog	Milliy-emotsional obrazlilik
2.	Ingliz adabiyoti	Mind, heart, soul	Monolog, dramatik konflikt	Falsafiy ichki kurash
3.	Rus adabiyoti	Душа, совесть	Psixologik tahlil	Chuqur introspektiv tasvir
4.	Amerika adabiyoti	Emotion, silence	Detal, sukut	Bilvosita ruhiy ifoda

XULOSA

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, barcha adabiyotlarda ruhiyat tasviri markaziy mavzulardan biri bo‘lsa-da, uni ifodalash usullari turlicha. O‘zbek adabiyotida hissiylik va milliy obrazlilik ustun bo‘lsa, rus adabiyotida psixologik tahlil, ingliz adabiyotida dramatism, Amerika adabiyotida esa lakonik bilvosita ifoda kuchli namoyon bo‘ladi.

Mazkur farqlar til va tafakkurning milliy xususiyatlari bilan izohlanadi. Shu bois ruhiyat ifodasini qiyosiy o‘rganish kognitiv tilshunoslik, pragmatika va lingvokulturologiya nuqtayi nazaridan muhimdir.

Demak, o‘zbek va jahon adabiyotida ruhiyat tasviri umumiy insoniy hodisa bo‘lsa-da, har bir milliy adabiyot uni o‘ziga xos badiiy-estetik vositalar bilan ifodalaydi. Bu esa badiiy matnning nafaqat til hodisasi, balki madaniy tafakkur mahsuli ekanini ko‘rsatadi.

Inson ruhiyatini badiiy matnda aks ettirish barcha milliy adabiyotlarga xos universal hodisa hisoblanadi. Biroq qaysi konseptlar markazda turishi, qanday metaforik modellar faollashishi, qanday pragmatik strategiyalar yetakchi bo‘lishi hamda ruhiy holatning til orqali qanday voqelanishi har bir til jamoasining kognitiv-madaniy o‘ziga xosligi bilan belgilanadi. Shu sababli o‘zbek badiiy matnlaridagi ruhiyat ifodasining kognitiv va pragmatik xususiyatlarini boshqa adabiyotlar materiali bilan qiyosiy tahlil qilish o‘zbek tilshunosligining milliy-konseptual asoslarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy. – Toshkent: Fan, turli nashrlar.
2. Abdulla Qodiriy. O‘tkan kunlar. – Toshkent: Sharq, turli nashrlar.
3. Ernest Hemingway. Death in the Afternoon. – New York, 1932.
4. Mirtemir. Asarlar. 4 jiltlik, 1-jilt. Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1981.
5. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. T., «O‘qituvchi», 1986y., 210-211-betlar.
6. William Shakespeare. Hamlet. – London, turli nashrlar.
7. Ф. М. Достоевский. Преступление и наказание – Москва.
8. Лессинг Г.Э. Лаокоон и в границах живописи и поэзии. М., 1957г., стр.183.

⁸ Ernest Hemingway. Death in the Afternoon. – New York, 1932.